


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

*61010400- Logistika bakalavriat ta'lif yo'naliishing*

*MALAKA TALABI*

Toshkent-2024



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti;

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Toshkent davlat transport universiteti;

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "25" iyun dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiylariga qo'yiladigan talablar .....</b>	7
3.	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	8
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	8
	<b>Bibliografik ma'lumotlar .....</b>	11
	<b>Kelishuv varag'i .....</b>	13

## **1. Umumiy tavsifi**

61010400 – Logistika ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi (Oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno). Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 61010400 – Logistika ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'naliishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Tashkiliy-huquqiy maqomidan qat'iy nazar barcha tashkilotlar (tijorat, notijorat, davlat va hududiy tashkilotlar), turli mulk shakllariga tegishli korxona va kompaniyalarning moddiy ishlab chiqarish, tovar aylanmasi va xizmat ko'rsatish sohasi, biznesning turli sohalarida moddiy, moliyaviy, axborot va servis oqimlari hamda resurslarni boshqarish va optimallashtirishga qaratilgan faoliyat yo'nalishlari, sanoat, transport, qishloq xo'jaligida tovar-moddiy resurslar harakatini tashkil etish va boshqarish, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, logistika tizimlari faoliyatini tashkil etish, tahlil qilish va takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

Turli tashkiliy-huquqiy shakldagi tashkilotlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari, hududiy uyushma va birlashmalardagi tovar-moddiy resurslar oqimini hamda tovar-moddiy resurslar oqimiga taalluqli bo'lgan moliyaviy va axborotlar oqimini boshqarish jarayonlari; davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari; ta'minot, ishlab chiqarish va ta'qsimot tizimlarida moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarni tashkil etish va boshqarish; logistika xizmatlari bozorini o'rganish, ishlab chiqarish, etkazib berish, taqsimlash, transport, texnologik tizimlarni axborot bilan ta'minlashni tashkil etish; sanoat, qishloq xo'jaligi, transport tashkilotlari, ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta'minlash; ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari.

*61010400 – Logistika* bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatlari boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *loyihaviy-konstrukturlik;*
- *tadbirkorlik.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*61010400 – Logistika* ta'lim yo'naliishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan logistika faoliyatiga, ta'minot zanjirlarini boshqarishga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirop etish;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etishda moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarni boshqarish bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirop etish;

ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda logistikaning dolzARB yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

ilmiy asoslangan logistika tizimlarini tavsiya etish va foydalanish;

logistika xizmatlarida biznes jarayonlarni modellashtirish va raqamlashtirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

omborlar va zaxiralarni boshqarish, buyurtmalarni boshqarish, yuklarni tashish, ortish, tushirish, qadoqlash, xaridlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni optimallashirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

iqtisodiyot tarmoq va sohalarida logistika xizmati ko'rsatishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha loyihaviy yechimlarni ishlab chiqish.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

tashkilot, kompaniya, korxonalarining korporativ va raqobat strategiyasi, shuningdek funksional strategiyalari(marketing, logistika, moliyaviy, kadrlar)ni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

tashkilot strategiyasiga muvofiq operatsion tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

logistika faoliyatini rejalashtirish;

logistika xizmatining tashkiliy-funksional tuzilmasini shakllantirish;

logistika faoliyatni amalga oshiradigan ijrochilar ishini tashkil etish;

tashkilot logistika tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

korxonalarining logistika xizmatlarining tarkibiy bo'linmalar: transport, ombor, axborot-tahliliy, tovar zaxiralarini boshqarish, buyurtmalar, xizmat ko'rsatish faoliyatini operativ rejalashtirish va boshqarish;

logistika xizmati bo'limi xodimlarining lavozim tavsiflarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

yuklarni tashish, ortish, tushirish, qadoqlash, omborlarda saqlash jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun, xom ashyo va moddiy resurslarni yetkazib beruvchilar va tayyor mahsulot iste'molchilari hamda logistika zanjirining boshqa ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni toplash, qayta ishslash va tahlil qilish;

tovar-moddiy resurslarning ichki va tashqi harakatining optimal sxemasini ishlab chiqish;

zamonaviy axborot texnologiyalardan logistikani boshqarishda foydalanish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari monitoringi hamda sifatini

baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalahtirish va boshqarish uchun ma'lumot toplash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

logistika loyihalari samaradorligini baholash;

logistika faoliyatining axborot-tahliliy natijalari bo'yicha hisobotlarni tayyorlash.

### **Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatida:**

makro va mikro darajadagi logistika tizimlari va logistika zanjirlari, logistika bo'g'unlari, ularda harakatlanadigan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarni loyihalash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini bakalavriat ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

logistika xizmatlarida yangi biznes jarayonlar loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish;

logistika servis biznesini tashkil etish bo'yicha biznes-rejalarni ishlab chiqish;

logistika servis bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish.

### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

kasbiy faoliyatda iqtisodiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olish, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tessavvurga ega bo'lish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

yuklarni tashish, ortish, tushirish, omborlarda saqlash, zaxiralarni boshqarish, buyurtmalarni boshqarish, qadoqlash, xaridlarni amalga oshirishda logistika operatsiyalarini optimallashtirish;

ishlab chiqarishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda korxona (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

makro va mikro darajadagi logistika tizimlarni loyihalash hamda logistika zanjirlari, logistika bo'g'unlari, ularda harakatlanadigan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarni boshqarish;

logistikaning funksional sohalari ta'minot, ishlab chiqarish, taqsimot tizimida bajariladigan logistika operatsiyalarini va funktsiyalarini sifatli bajarish ko'nikmasiga ega bo'lish;

iqtisodiy o'sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasida logistikaga oid strategik qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

logistika jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

logistika kompaniya(tashkilot)larini tashkil etish va takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – majburiy mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lism yo'naliishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Bitiruv oldi amaliyoti.

### **4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00 Majburiy fanlar</b>					
1.01	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	300	10	1, 2
1.03	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	1
1.04	XT11210	Xorijiy til 1,2 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	300	10	1, 2
1.05	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.07	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.08	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.09	AKKK1204	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	2
1.10	FAL1305	Falsafa	120	4	3
1.11	STAT1305	Statistika	180	6	3

1.12	EKMET1305	Ekonometrika	150	5	3
1.13	MIKIQ1305	Mikroiqtisodiyot	150	5	3
1.14	MENJ1405	Menejment	150	5	4
1.15	MARK1405	Marketing	150	5	4
1.16	BBA1105	Biznes boshqaruv asoslari	150	5	1
1.17	LOGA13405	Logistika asoslari	300	10	3,4
<b>Logistika (iqtisodiy faoliyat bo'yicha)</b>					
1.18	LOGB1405	Logistikani boshqarish	150	5	4
1.19	BLINF1405	Bozor va logistika infratuzilmasi	150	5	4
1.20	TZBRT1505	Ta'minot zanjirini boshqarish va rejalashtirish tizimlari	150	5	5
1.21	OMLOG1505	Omborxona logistikasi	150	5	5
1.22	XSXSH1505	Xalqaro savdo va xalqaro shartnomalar	150	5	5
1.23	TSLOG1605	Tijorat va servis logistikasi	150	5	5
1.24	AGLOG1605	Agro logistika	150	5	6
1.25	TRIQT1605	Transport iqtisodiyoti	150	5	6
1.26	YLOG1605	Yashil logistika	150	5	6
1.27	XEBB1605	Xaridlar va etkazib berishni boshqarish	150	5	6
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>3-7</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1800	60	3-7
<b>Kvalifikatsiya</b>					
<b>Iqtisodchi -logist</b>					
<b>Logistika (transport faoliyati bo'yicha)</b>					
<b>Majburiy fanlar</b>					
<b>1.00</b>					
1.01	Omat1128	Oliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	SIM1304	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	180	6	7
1.03	LTAKR1104	Logistik tizimlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar	120	4	1
1.04	XT11208	Xorijiy til 1,2	300	10	1, 2
1.05	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.07	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.08	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	3
1.09	MKG1204	Muhandislik va komputer grafikasi	180	6	3
1.10	FAL1304	Falsafa	120	4	3
1.11	STAT1704	Ekologiya	120	4	7
1.12	HFX1504	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	3
1.13	TInfr1104	Transport infratuzilmasi	120	4	1
1.14	Fiz11208	Fizika 1,2	300	10	1, 2
1.15	Log12308	Logistika	300	10	3,4
1.16	TLog1404	Transport logistikasi	180	6	4
<b>Logistika (avtomobil transporti)</b>					
1.17	TUK1204	Transport umumiy kursi	120	6	2
1.18	ATYT14508	Avtomobil transportida yuklarni tashish	240	8	4,5
1.19	JTTTEB15608	Jamoat transportida tashishni tashkil etish va boshqarish	240	8	5,6
1.20	LIT15608	Logistikada intellektual tizimlar	240	8	6,7
1.21	TLog1806	Shahar transport tizimini rejalashtirish	240	8	5,6
1.22	TTJM1606	Transportda tashish jarayonlarni modellashtirish	180	8	6
1.23	YLog1604	Yashil logistika	120	4	7
1.24	AXT1506	Avtomobillarda xalqaro tashuvlar	180	6	5
1.25	YHTE1606	Yo'l harakatini tashkil etish	180	6	6
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>3-7</b>
		<i>Tanlov fanlar</i>	1800	60	3-7

<b>Logistika (temir yo'l transporti)</b>					
1.17	TYTOTIKM15 610	Temir yo'l transportida ortish-tushirish ishlarini kompleks mexanizatsiyalash	300	10	4,5
1.18	TYFIB156712	Temir yo'lidan foydalanish ishlarini boshqarish	360	12	5,6
1.19	YTIB167814	Yuk va tijorat ishlarini boshqarish	360	12	5,6
1.20	TYBU167814	Temir yo'l bekatlari va uzellari	360	12	5,6
1.21	MTTTT14508	Multimodal tashishlarni texnik-texnologik ta'minoti	300	10	4,5
1.22	TTAT1104	Temir yo'l transporti asoslari	180	6	1
1.23	VYJM1404	Vagonlarga yuklarni joylashtirish va mahkamlash	120	4	4
1.24	YTITEB1304	Yo'lovchi tashish ishlarini tashkil etish va boshqarish	180	6	4
1.25	YBZIT1804	Yetkazib berish zanjirida izotermik tashishlar	120	4	6
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	<b>3-7</b>
		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>1200</b>	<b>40</b>	<b>3-7</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Muhandis-logist</b>			
<b>Logistika (axborot-kommunikatsion texnologiyalar)</b>					
1.18	YeBZB1406	Yetkazib berish zanjirini boshqarish	180	5	5
1.19	ETT1306	Elektron to'lov texnologiyalari	150	5	4
1.20	OPMA1306	Operation menejment	180	5	4
1.21	TZA1606	Ta'minot zanjiri analitikasi	180	5	6
1.22	LOGZB1506	Logistika va zahiralarini boshqarish	180	5	5
1.23	XYeBB1406	Xaridlar va yetkazib beruvchilarni boshqarish	180	5	5
1.24	GTZB1506	Global ta'minot zanjiri boshqaruvi	180	5	6
1.25	ELEKT1406	Elektron tijorat	180	5	5
1.26	TZS1606	Ta'minot zanjiri strategiyasi	180	5	6
1.27	ITSUPCHM15 06	Iste'molchilar munosabatlarini boshqarish tizimi asoslari (CRM)	180	5	6
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>3-7</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1800	60	3-7
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Iqtisodchi-logist</b>			
		<b>Jami</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	900	30	8
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>			8
		<b>Jami</b>	900	30	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7  
OKS 01.040.01

Guruh T 55

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'naliши, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, kompetensiya, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, logistika xizmati, logistika zanjiri, logistika tizimi, logistika jarayonlari, tovar zaxiralarini boshqarish, buyurtmalar, moddiy, moliyaviy va axborot oqimlar.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari



Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

202 24 yil « 26 »  
M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
O'ztemiryo'l konteyner aksiyadorlik jamiyatni  
boshqaruv raisi A. Kamalov

202 24 yil « 26 »  
M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
Transport vazirligi huzuridagi  
Transport va logistikani rivojlantirish  
muammolarini o'rGANISH markazi

Direktori  B. Xolmatov

202 24 yil « 26 » 2024  
M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
Transport vazirligi  
vazir o'rbinbosari I. Abdugafarov

202 24 yil



"Hakim Trans Servis" mas'uliyati  
cheklangan jamiyatni

Direktori  A. Xakimov

202 24 yil



"Marokand Khumo Services" mas'uliyati cheklangan jamiyatni  
Direktori  P. Nasriev

202 24 yil

